NAVOIY VILOYATI UCHQUDUQ TUMAN HOKIMINING QARORI

Uchquduq tuman A.Temur - 28 tel: (79) 222-00-05

2023 - yil 7 - yanvar 2-5-76-Q/23 Uchquduq tumani hokimligi

Tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni 13-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi qaror *(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.03.2021-yil., 09/21/125/0195-son)* hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi “Avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2022-yil, 07/22/298/0571-son)* ijrosini tegishli bandlariga muvofiq transport vositalarini 2021-yilgi majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1993-yil 9-sonli 320-modda)* asosan

QAROR QILAMAN:

1. Uchquduq tumani hududida joylashgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari va ularning tirkamalari majburiy mavsumiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi (keyingi o‘rinlarda matnda “texnik ko‘rik” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlari (keyingi o‘rinlarda matnda - “DYHXX” deb yuritiladi) tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar, vazirliklar va idoralarning, boshqa tashkilotlarning, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari (keyingi o‘rinda - “TXS” deb ataladi) shartnoma asosida

jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari, normalariga muvofiqligi tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda - Subyektlar deb ataladi) tomonidan ham baholanishi mumkin.

Bunda jismoniy shaxslar - M1 toifadagi transport vositalari egalari o‘z transport vositasining texnik holati va uskunalari muvofiqligini baholash uchun o‘z tanloviga ko‘ra, TXS yoki Subyektlarga murojaat qilishlari mumkin.

3. Texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha, Uchquduq tuman komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Navoiy viloyati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi 1-sonli tumanlararo ro‘yxatga olish va imtihon olish bo‘limida Uchquduq tumani bo‘yicha ro‘yxatda turgan transport vositalari va ularning tirkamalariga ega avtokorxona, tashkilot, xususiy korxonalar hamda muassasalarning 2023-yildagi texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumandagi barcha transport vositalari va ularning tirkamalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga transport vositalarini texnik pasporti bilan birgalikda, o‘z vaqtida rejali jadval asosida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

5. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi kerak:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n bir yildan o‘n to‘rt yilgacha (o‘n to‘rtinchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari),

shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n besh yil va undan ortiq bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi;

6. Mazkur qarorning 3-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta joriy yilning 1-martidan 30-iyungacha o‘tkaziladi;

ikkinchi marta joriy yilning 1-sentabrdan, 30-oktabrgacha o‘tkaziladi.

Yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-martdan 30-iyungacha o‘tkaziladi.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari va ularning tirkamalarining texnik ko‘rigi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabr kungi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi qaroriga muvofiq 1-yanvardan 31-dekabrga qadar o‘tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

7. Transport vositalari va ularning tirkamalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun jarimalar undirilishida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan tartiblarga qat’iy rioya qilinsin.

8. Birinchi (oldingi) texnik ko‘rikda nosoz deb topilgan transport vositalari takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganlik uchun yig‘im undirilsin.

Texnik ko‘rik o‘tkazilganligi uchun yig‘im summasi tuman mahalliy byudjetga o‘tkazilsin.

9. Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazganlik uchun to‘lov miqdori tadbirkorlik subyektlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi hamda kelib tushadigan mablag‘lar to‘liq hajmda uning tasarrufida qoldirilsin.

10. Transport vositalari va ularning tirkamalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish, tuman komissiyasi rahbariga:

transport vositalari va ularning tirkamalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari hamda qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish:

transport vositalari va ularning tirkamalarining texnik holati va uskunalari, shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligi standartlari hamda normalariga muvofiqligini baholash yuklatilsin.

11. Tuman hududidagi barcha yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalari mavsumiy texnik ko‘rikdan o‘tishda haydovchilarni transport vositalarini videokuzatuv moslamalari (videoregistrator) bilan to‘liq jihozlanganidan so‘ng amalga oshirilsin.

12. Uchquduq tumani IIB JXX YHXG xodimlari mazkur qarorning ijrosi ta’minlanganligi to‘g‘risida 2023-yilning 30-noyabr kuniga qadar Uchquduq tuman hokimligiga yozma ravishda axborot taqdim etish topshirilsin.

13. Tuman hokimligi axborot xizmat rahbari - matbuot kotibi (R.Qodirova) ushbu qarorni ommaviy axborot vositalariga keng yoritilishini hamda Uchquduq tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Uchquduq tuman hokimining o‘rinbosari O.Ramazonov, ijrosini tashkil etish Uchquduq tuman IIB boshlig‘i A.Rayxanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b. **O.Ramazonov**

Uchquduq tuman hokimining
2023 yil 7 yanvardagi
2-5-76-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining

T A R K I B I

1. A.Raxmonov	tuman IIB JXX YHXG katta inspektori, ishchi guruh rahbari
2. B.Beknazarova	tuman “O‘zagrosug‘urta” bo‘limi bosh menejeri, ishchi guruh a’zosi
3. O.Ro‘ziyev	tuman Mudofaa ishlari bo‘limida texnika hisobini yurituvchi xodim
4. S.Raximov	NKMK Shimoliy kon boshqarmasi transport bo‘lim boshlig‘i
5.E.Mo‘minov	Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori

Uchquduq tuman hokimining
2023 yil 7 yanvardagi
2-5-76-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Uchquduq tumani IIB YHXGda ro‘yxatda turgan transport vositalariga ega bo‘lgan avtokorxona, tashkilot, xususiy korxonalarning 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish

J A D V A L I

T/R	Tashkilot, korxona, idora va uyushmalarning nomlari	TV soni	Kuni va vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joyi
1	NGMK SEV.RU A/B-1	297	14-28.03.2023-yil 11-25.04.2023-yil 08-16.05.2023-yil 13-27.06.2023-yil	Korxona hududida
2	“Navoiyuran” DK Uchquduq ishlab chiqarish maydoni Geotexnalogiya koni	95	10.04.2023-yil 15.05.2023-yil	Korxona hududida
3	NGMK SEV.RU GMZ-3	10	17.04.2023-yil	Korxona hududida
4	KOKPATAS DGKE	28	18.04.2023-yil 25.05.2023-yil	Korxona hududida
5	NGMK SEV.RU UAT	9	24.04.2021-yil	Korxona hududida
6.	SHKB jamg‘armasi Uchquduq hududiy boshqarmasi	30	26.04.2023-yil	Korxona xududi
7	NGMK SEV.RU SMTB	6	15.05.2021-yil	Korxona hududida
8	BUKANTAU GTBP	59	04.04.2023-yil 23.05.2023-yil	Korxona hududida
9	UCHQUDUQ-QIMIZ MCHJ	29	27.03.2023-yil 24.04.2023-yil 25.05.2023-yil	Korxona hududida
10	ISKANDAR-ISHONCH-TRANS-SERVIS MCHJ	27		Korxona hududida
11	ISKANDAR GRAND INVEST MCHJ	3		Korxona hududida
12	UCHQUDUQ-RAVON-YO‘L MCHJ	34	09.04.2023-yil	Korxona hududida
13	FARRUX-UCHQUDUQ TRANS MCHJ	51	08.04.2023-yil	Korxona hududida
14	UCHQUDUQ TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	12	10.05.2023-yil	Korxona hududida
15	UCHQUDUQ TUMAN Y.F.U.K	21	06.04.2023-yil	Korxona hududida
16	UCHQUDUQ TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	13	16.04.2023-yil	Korxona hududida
17	UCHQUDUQ TUMAN TOZA HUDUD DUK	6	15.04.2023-yil	Korxona hududida
18	UCHQUDUQ TUMAN HOKIMLIGI	10	25.04.2023-yil	Korxona hududida
19	MK VATANPARVAR USTK	7	13.04.2023-yil	Korxona hududida
20	UCHQUDUQ-SAVDO MCHJ	12	15.05.2023-yil	Korxona hududida

21	UCHQUDUQ TEMIR YO‘L MASOFASI	4	17.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
22	UCHQUDUQ TUMAN VETERENARIYA BO‘LIMI	2	05.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
23	UCHQUDUQ BEK BARAKA MCHJ	2	15.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
24	NGMK SEV.RU STVGSIK	2	15.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
25	UR MB RIX DUK NAVOIY VIL BOSHQARMASI UCHQUDUQ SHAHAR BO‘LIMI	2	26.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
26	BANDLIKKA KO‘MAKLASHISH MARKAZI	2	15.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
27	TEMURBEK FAYZ F/X	2	15.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
28	O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI	2	28.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
29	UCHQUDUQ SANOAT TEXNIKUMI	2	28.03.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
30	SHOIRA YODGOR MCHJ	2	19.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
31	SHOXBEK BIZNES FARM MCHJ	2	19.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
32	AYGERIM ALMAGUL X/K	2	21.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
33	GRANT UCHQUDUQ MCHJ	2	21.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
34	EVROMETAL-AZIA MCHJ	2	26.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
35	QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI KASB-HUNAR KOLLEJI	1	26.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
36	MIKROKRIDIT BANK ATB	1	17.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
37	SUDLAR FAOLIYATINI TAM.DEPART NAV.VIL.BO‘LIMI	1	19.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
38	UCHQUDUQ GAZETA TAHRIRIYATI DAVLAT KORXONASI	1	16.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
39	UCHQUDUQ DAVLAT O‘RMON XO‘JALIGI	1	15.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
40	UCHQUDUQ DEHQON BOZORI MCHJ	1	15.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
41	UCHQUDUQ POCHTA ALOQA TARMOG‘I	1	15.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
42	UCHQUDUQ TUMAN QISHLOQ XO‘JALIK BO‘LIMI	1	15.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
43	UCHQUDUQ TUMAN SUDI	1	13.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
44	UCHQUDUQ TUMAN HOKIMIYATI MOLIYA BO‘LIMI	1	13.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida

45	UCHQUDUQ TUMAN HOKIMLIGI XALQ QABULXONASI	1	13.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
46	UCHQUDUQ TUMANI "MAHALLA" XAYRIYA JAMOAT FONDI	1	19.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
47	UCHQUDUQ TUMANI DSI	1	19.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
48	UCHQUDUQ TUMANI DSENM	2	18.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
49	UCHQUDUQ TUMANI XALQ TALIMI BO‘LIMI	1	18.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
50	BUXORO MINTAQAVIY TEMIR YO‘L UZELI UCHQUDUQ TEMIR YO‘L MASOFASI	1	23.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
51	BUXORO MINTAQAVIY TEMIR YO‘LI "TIKLASH POYEZDI-4310"	1	23.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
52	BUXORO HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH OTRYADI	1	23.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
53	QANARBOY OTA XAYRIYA JAMG‘ARMASI	1	27.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
54	MAJBURIY IJRO BYUROSI NAVOIY VILOYAT UCHQUDUQ TUMANI BO‘LIMI	1	27.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
55	SHIMOL OVQATLANISH KOMBINATI	1	27.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
56	BARAKA-SERVES-UCHQUDUQ FX	1	27.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
57	ONIKS MCHJ	1	29.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
58	RAVSHAN GULSHAN RAVNAQI MCHJ	1	29.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
59	TARLON OIL GAZ MCHJ	1	05.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
60	UCHQUDUQ NAVRO‘Z MCHJ	1	05.04.2021-yil	Tuman IIB YHXG binosida
61	UCHQUDUQ-NEDRA MCHJ	1	05.04.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
62	UCHQUDUQ MILK-2000 MCHJ	1	04.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
63	HAYOTJON MCHJ	1	04.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
64	ALTINTOU-KALIN MCHJ	1	04.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
65	VEST DREAM INVEST MCHJ	1	23.05.2021-yil	Tuman IIB YHXG binosida
66	GULI MOXLAROYIM X/K	1	23.05.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
67	ZUXRIDDIN-NUR X.K	1	09.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
68	ISLOMIDDIN-MAXMUDJON F/X	1	09.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida

69	ISHONCH-FERUZ X.K	1	09.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
70	NASIBA SHIRINLIKLARI X/K	1	10.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
71	NURAFSHON NUR BIZNES MCHJ	1	10.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
72	OOO "UCHQUDUQ AGRO COMPLEX"	1	12.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
73	OOO HEART OF UCHQUDUK	1	12.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
74	JEWELERY STONE MCHJ	1	12.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
75	LANMAIJIYUAN MCHJ	1	14.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
76	NEW STAR UCHQUDUQ MCHJ	1	14.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
77	SARVIGUL CHARROS SEVARA D.X	1	14.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
78	AZIZJON MUNISXON-KELAJAGI X/K	1	15.06.2023 -yil	Tuman IIB YHXG binosida
79	DINARABONU-GRANT MCHJ	1	15.06.2023-yil	Tuman IIB YHXG binosida
80	Boshqa fermer xo‘jaliklarida	18	30.06.2023-yilgacha	Tuman IIB YHXG binosida
JAMI;		833		

Izoh: Qolgan tashkilotlar, xususiy kichik korxonalarga tegishli bo‘lgan transport vositalari haftaning shanba kunlari Uchquduq tumanidagi “Uchquduq-Qimiz” MCHJda texnik ko‘rikdan o‘tkazadilar.